



FRAZEOLOGIZMLAR VA IDIOMALAR, ULARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI VA FARQLARI

Sabirova Sevara Baxtiyorovna¹

¹Urganch davlat universiteti

Ismailova Anaxon Kamoladdinovna²

²Urganch davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7197915>

Annotatsiya. Bu maqolada ijtimoiy-siyosiy, badiiy asarlar va boshqa ilmiy adabiyotlardan to‘plangan lisoniy materiallar ham o‘z aksini topgan bo‘lib, Xorazm shevalaridagi frazeologizmlar, ularning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish maqsad qilib olindi.

Kalit so‘zlar: adabiy til, sheva, lisoniy birlik, badiiy asar, frazeologizm, grammatik xususiyatlar

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar haqida gap ketar ekan, avvalo, frazeologiya terminiga qiqacha izoh berib o‘tishni lozim ko‘ramiz. “Frazeologiya” termini grek tilidan olingan bo‘lib, rhrasis-ibora+logos-ta‘limot, ya‘ni “Iboralar to‘g‘risidagi ta‘limot” degan ma‘noni beradi. Leksikologiya, jumladan, frazeologiyaga doir mavjud darslik, o‘quv qo‘llanmalar va ayrim ilmiy manbalarda esa frazeologiya terminiga quyidagicha izoh beriladi: “Frazeologiya yunoncha so‘z bo‘lib, rhrasis – fraza – ibora, ifoda; logos – bilim, ilm, fan, ya‘ni iboralar haqidagi fan demakdir” . Umuman, frazeologizmlarning o‘rganish tarixiga nazar tashlaganda, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ular dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo‘lgan ekan. Bu tabiiy hol. Qolaversa, mazkur tushunchalar ilk bor yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlarida, shuningdek, xalq og‘zaki ijodida o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, frazeologizmlarni lingvistik nuqtai nazardan o‘rganish zarurati ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida paydo bo‘lgan. Bu xususida ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus tilshunosi Y.D.Pinxasov shunday yozadi: “Ma‘lum bir asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish jarayoni juda qiyin kechgan. Shundan keyingina esa o‘sha tillardagi mavjud bo‘lgan frazeologik iboralar o‘rganila boshlangan” . Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, frazeologizmlar dastlab adabiyotshunoslikda adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilganligi shubhasizdir. Keyinchalik esa, turli xildagi frazeologik lug‘atlarda oddiy so‘z ma‘nolari izohlanganidek, tildagi frazeologizmlar ham atroflicha to‘planilib, ularni ma‘nolari izohlanishiga kirishilgan. Ana shundan so‘ng frazeologizmlarning ma‘nolari, ularning grammatik qurilishlari va boshqalar tilshunoslik fanida ham bosqichma-bosqich monografik planda o‘rganila boshlandi.



Bundan tashqari, rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologizmlarning o'rganilishi yuzasidan fikr yuritar ekan, shunday yozadi: "Frazeologiya termini dunyo tilshunosligida 1558-yili ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo'llangan. Chunonchi, u badiiy asarlarni tarjima qilishda, aynan, shu termini qo'llashni ma'qul ko'rgan".

Frazeologiya sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan o'zbek tilshunoslari bu masalaga boshqacha yondashib, ilmiy asoslab, quyidagicha fikr bildiradilar: "Frazeologiya masalalari bilan tilshunoslar shug'ullanganlari ma'qul. Chunki hozirgi davrgacha ham frazeologizmlar, maqollar, matallar, idiomalar, aforizmlar, hikmatli so'zlar, topishmoqlar va turli xildagi qochirimlarning munosabatlari, o'xshash hamda farqli tomonlari o'zaro aralashib ketgan". Bularning o'zaro farqlarini ajratish mushkul bo'lib qolmoqda. Buning ustiga, bular yuzasidan har bir tadqiqotchining o'z qarashlari mavjud bo'lib, har bir muallim bu hodisani o'zi tushungani darajasida talqin qilib keladi. Vaholanki, ular o'rtasida farqlar bo'lishi aniq. Aks holda ular turli xil terminlar bilan berilmas yoki belgilanmas edi. Bu xususida rus tilshunosi A.V.Fyodorov ham o'z davrida fikr bildirgan. Uning fikricha, nutq vositalarining bu kategoriyasi faqatgina badiiy adabiyotlarning xususiy mulki bo'lolmaydi. Chunki frazeologizmlar publitsistikada va qisman, ilmiy adabiyotlarda ham ishlatiladi. Shuning uchun ularga faqat badiiy adabiyotga taalluqli masala deb emas, balki juda muhim umumiy til masalasi sifatida qaralmog'i kerak.

Shunday ekan, frazeologiya tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo'lib, u frazeologik birliklarni o'rganuvchi fan sohasidir. Frazeologiyaga yoki leksikologiyaga oid darslik va o'quv qo'llanmalarda frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llanilishi e'tirof etiladi. Birinchisi, tildagi frazeologik birliklarning jami ma'nosi bo'lsa, ikkinchisi esa ana shunday frazeologik birliklarni o'rganuvchi soha ma'nosidir. Endi shu xususida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Gap shundaki, ayrim darsliklarda frazeologizmlar ta'rifi haqida gap ketganda frazeologik birlik yoki lug'aviy birlik deb yuritiladi. Bizningcha, bu o'rinda frazeologizmlar frazeologik birlik deb emas, balki lug'aviy birlik deb yuritilgani ma'quldir. Chunki tilshunoslikda frazeologizmlar lug'aviy birlik deb yuritiladi. Demak, ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan hamda yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologizmlar deyiladi.

Endi frazeologizmlar va idiomalar orasidagi munosabat hamda ularning o'zaro o'xshash va farqlari tomonlanlari xususida to'xtalib o'tishni lozim deb o'ylaymiz. Chunki shu davrgacha ushbu terminlar o'zbek tilshunosligida



aralastirib yuborilmoqda, hattoki chalkash fikrlar ham mavjuddir. Masalan, umumta'lim o'rta maktablari ona tili darsliklarida tarvuzi qo'ltig'idan tushdi iborasini frazeologizm deb beriladi. Bu esa aslida frazeologizm emas, balki idiomadir. Chunki idiomalar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra frazeologizmlardan farq qiladi. Aks holda, frazeologizmlar va idiomalar o'zbek, jumladan, jahon tilshunosligida alohida-alohida terminlar bilan berilmagan bo'lar edi. Taniqli olim, rahmatli G.Salomov o'zining "Til va tarjima" asarida idiomalar xususida to'xtalar ekan, quyidagi misolni idioma sifatida misol keltiradi. "tarvuzi qo'ltig'idan tushdi" idiomasi bir tomondan frazeologizmga ham o'xshab ketadi, - deb etirof etadi. Ikkinchi tomondan, gapda yaxlit bir sintaktik vazifa bajarishini ta'kidlaydi. Uchinchi tomondan, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi ibomasini tarvuzi - nimasi?, tushdi - nima qildi? Tarzida sintaktik tahlil qilsa, bu kulguli bo'ladi, - deb fikr bildiradi. To'rtinchi tomondan, frazeologizmlarga jamiyatdagi narsa, voqea, hodisaga nisbatan bog'liklik bo'lsa, idiomalarda bu narsa kuzatilmaydi", - deb tushuntirib o'tadi. Bu fikr to'g'ri. Chunki frazeologizmlarda narsa, voqealar va hodisalarga nisbatan o'zaro bog'liqlik bo'lsa, idiomalarda o'sha narsa, voqea, hodisaga nisbatan hech qanday bog'liq bo'lmaydi, ya'ni ular jamiyatda bo'lmaydigan voqea va hodisalardir. Ana shu idiomalarga biz ham munosabat bildirar ekanmiz, ushbu terminga xos tushunchalar o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm shevalarida (o'g'uz) ko'zga tashlanadi. Misollar keltiramiz: kasak gullaganda, ikki bozor bir galyandi va h. Haqiqatdan ham idiomalar bo'lmaydigan voqea va hodisalardir. Chunki kasak hech qachon gullamaydi hamda o'z o'rnida, ikki bozor ham hech qachon bir kelmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, frazeologizmlar bilan idiomalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik ularning sintaktik vazifasi bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro birinchi farq bularning jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarga bo'lgan munosabatidir. Ya'ni frazeologizmlarda o'zaro bog'liqlik bo'lsa, idiomalarda hech qanday bog'liqlik bo'lmaydi. Yuqorida tilga olingan G.Salomov o'zining mazkur asarida frazeologizmlar, maqollar, matallar, aforizmlar, hikmatli so'zlar va qochirimlarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganar ekan, bularning barchasi uchun umumiy bo'lgan termin frazeologiya deb, - ta'kidlaydi va maqollar, matallar, aforizmlar, hikmatli so'zlar hamda qochirimlar frazeologiyaning tarkibiy qismlari deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Ислон. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2009
2. Абдуллаев Ф. А. Кипчакский говор узбекского языка. АИД. – Тошкент, 1957.



3. Абдуллаев Ф. А. Хоразм шевалари. I луғат. – Тошкент, 1961.
4. Арнолд И. В. Лексикология современного английского языка. – М. , 1969.
5. Бегматов Э. А. Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
6. Бердиёров Ҳ. , Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарқанд, 1977.
7. Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. – Самарқанд, 1976, 1976, 1983.

